

## ADABIY TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY- MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

**Yusupov Berdibek Batirbek o'g'li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

[berdibekyusupov@mail.ru](mailto:berdibekyusupov@mail.ru)

Telefon: +998998259522

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy tamoyillari va aspektlari xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'lim, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, kognitiv, kompetentlik, modernizatsiya, intellektual qobiliyat, texnologiya, kommunikativ kompetensiya.

**Abstract.** The article talks about the main principles and aspects of the formation of socio-cultural competence of students.

**Key words:** literary education, socio-cultural competence, cognitive, competence, modernization, intellectual ability, technology, communicative competence.

**Аннотация.** В статье говорится об основных принципах и аспектах формирования социокультурной компетентности студентов.

**Ключевые слова:** литературное образование, социокультурная компетентность, познавательная, компетентность, модернизация, интеллектуальные способности, технологии, коммуникативная компетентность.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda umuminsoniy madaniyat artefaktlaridan asosiy vosita sifatida foydalangan holda milliy madaniyat modelini quyidagi vositalar yordamida shakllantirish va o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, quyidagilarga e'tibor qilish nazarda tutiladi:

1. Milliy madaniyat asosiga doir plakatlar, diagrammalar, hujjatli filmlar va boshqalar.

2. Tasviriy san'at asarlari.

3. Badiiy adabiyot namunalari.

4. Kinematografiya va musiqaga oid asarlar.

5. Ensiklopedik-ma'lumotnomalar, ilmiy-metodik adabiyotlar, sharhlar, yo'riqnomalar, xaritalar.

6. Ommaviy axborot vositalari.

7. O'qituvchi bilan boshqa xalq madaniyati yuzasidan tarjimon sifatida muloqot qilish.

8. Milliy va umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismiga doir tushuntirishlar, tizimli funksional umumlashmalar, nutq, odob-axloq me’yorlari, og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalari, aforizmlar, frazeologik birliklar, ekvivalenti bo‘lmagan leksemalar va h.k. Shunga ko‘ra, adabiy ta’lim tizimida gnosemik yondashuv mazmunini quyidagi aspektlardan tashkil topadi deb baholash mumkin.

1. **Rivojlantiruvchi aspekt** (sterotiplarni yengib o‘tish va adabiyoti o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga kirib borishga imkon beruvchi moslashuvchan tarjima gnosemik tafakkurini hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida tarjima motivatsiyasini rivojlantirish, madaniyatlararo differensiallik mexanizmlarini ishlab chiqish, taxminlarni kutish).

2. **Ta’lim aspekti** (ta’lim haqidagi ijtimoiy-madaniy tushunchalar, tarjima muammolarini hal qilish jarayonida ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga oid ta’limiy tushunchalardan foydalanish ko‘nikmalari, qobiliyati va tajribasi);

3. **Kognitiv aspekt** (gnosemikaning kengayishi ijtimoiy-madaniy dunyoqarashga oid tushunchalarning qiyosiy rivojlanishiga asoslangan).

4. **Tarbiyaviy aspekt** (kelajakning qadriyat yo‘nalishlari) tarjimon, ijtimoiy-madaniy ta’lim va keng dunyoqarash, tarjima mas’uliyati, bag‘rikenglik).

Boshqa tadqiqotlarda muammoning boshqa qiralarini tahlilga tortilgani kuzatiladi. Jumladan, D.G.Shumakov tomonidan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish algoritmi quyidagicha keltiriladi:

1. *Motivatsiya uyg‘otishga oid kirish bosqichi*. Unda ta’lim oluvchilarning ijtimoiy-madaniy bilimlari hajmini aniqlash talab etiladi.

2. *O‘quvchilarni adabiyoti o‘rganilayotgan mamlakatdagi ijtimoiy-madaniy hodisalar va faktlar bilan tanishishtirish*. O‘rganilayotgan til, nutq va nutqdan tashqari xatti-harakatlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari o‘zlashtiriladi, shuningdek, retseptiv va reproduktiv mashqlarni bajarish orqali birlamchi nutq ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash yillar davomida ta’lim sahosida o‘zlashtirilgan an’analar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarga amal qilish, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, ta’limning barcha bosqichlariga integrativ yondashuv, ta’limni raqamlashtirishga oid davlat siyosatining dasturiy ta’minotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada pedagoglar zimmasiga o‘z ustida tinimsiz izlanishdan iborat katta mas’uliyat yuklanadi.

Biroq zamonaviy talablar shundan iboratki, maxsus kasbiy kompetensiyalar zamonaviy pedagog uchun yetarli emas. Maxsus kasbiy kompetensiyalardan tashqari, o‘qituvchidan yana metodik, metodologik va pedagogik faoliyati davomida quyidagicha tayanch kompetensiyalarni egallashlari taqozo etiladi. Mazkur kompetensiyalar refleksiv, kognitiv, tashxisga oid, kommunikativ, ijtimoiy mohiyati bilan ajralib turadi. Quyida mazkur kompetensiyalarning har biriga batafsilroq to‘xtalamiz.

1. *Refleksiv kompetensiya* pedagogning o‘z mehnatini integral, ajralmas qobiliyat bilan baholay olishiga bog‘liq. Gap uning vazifalari, maqsadi, vositalari, shartlari, natijalari o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini ko‘ra olishdadir. Pedagog ayrim pedagogik qobiliyatlarni baholashdan o‘z malakasi va faoliyati natijaviyligini

baholashga o'tadi.

Pedagoglarning o'z-o'zini bilishi tajribaning barcha tarkibiy qismlari uyg'unlashgan birikmasi, boshqa odamlar va o'z-o'zini bilishi asosida yuzaga keladi. Bunda o'z-o'ziga baho berish o'z shaxsi va faoliyatning yutuqlari va kamchiliklariga bo'lgan o'ziga xos talabchanlik, o'z ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sabablarini tushunushnisha yo'l ochiladi.

Pedagogik refleksiya metodik faoliyatda – kasbiy faoliyatni doimo tahlil qilish, har bir bosqichini baholashga bo'lgan mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatidir. Pedagogning ijodiy individualligini idrok qiluvchi yo'nalganlik asosini qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar tashkil qiladi. Ularga umummadaniy, maxsus va psixologik-pedagogik bilimlarga ehtiyoj va ularning ahamiyatini tan olishni kiritish mumkin.

Faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan kasbiy-pedagogik o'z-o'zini takomillashtirish motivatsiyasi pozitiv oqibatlarining anglanishi, ijtimoiy ahamiyat va o'z yutuqlarining qadrini ko'zda tutadi. Motivatsiya funksiyasi qo'llanilishi samaradorligi oxirgi natijalar va ijodiy mustaqil rivojlanishga asos bo'ladigan shart-sharoitlar va undovchi stimullarni yaratishni talab qiladi.

2. *Kognitiv kompetensiya* o'z kasbiy darajasini doimo oshirishga tayyorlik, mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, ijodiy rivojlanish g'oyalarini qo'llash va o'z metodik kompetentligini muntazam boyita olish bilan tavsiflanadi.

3. *Axborot kompetensiyasi* o'qituvchining maxsus va kasbiy-pedagogik bilimlari, fikrlash usullaridan tashqari kasbiy faoliyati jarayonida kerakli axborotlar olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishida maxsus qobiliyatlarining egallanishini ko'zda tutadi. Bu borada funksional tobe pedagogik, axborot, metodologik, psixofiziologik vosita va metodikalar majmuyini qo'llash orqali ta'lim tashxisiga erishishga qaratilgan yangi axborot texnologiyalarining egallanishi alohida o'rin tutadi.

Axborot kompetentligining egallanishi ahamiyati pedagog tahsil oluvchi ustunliklarini hisobga olib bilishi, ko'p darajali darsliklar, avtomatlashgan o'qitish va nazorat tizimlaridan foydalanishda har bir o'quvchining o'quv faoliyati haqida tizimli tasavvurni ta'minlashga erishishidan iborat.

4. *Kommunikativ kompetensiya* o'qituvchining kommunikativ faoliyati xususiyatlarini tavsiflaydi. U yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullarni o'z ichiga oladi. Boshqalarning tutgan o'rnini muloqotda tushuna olish, uning shaxsiga qiziqish bildirish, xulq-atvori jihatlari bo'yicha ichki holatini tushuntirib bera olishi, noverbal muloqot vositalarini (mimika, imo-ishoralar), ritorika usullarini egallash, baholovchi, ayniqsa, o'qitish jarayonida demokratik uslubning ustunligi, pedagogik vaziyatning ayrim jihatlari yumor bilan qaray olish kiradi.

5. *Ijtimoiy kompetensiya* metodik tayyorgarlik darajasini oshirishning ijtimoiy ahamiyatini anglash, taklif qilingan yangi metodik yondashuvlar va ularning qo'llanilishiga javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati ko'rsatkichi sifatida ta'lim muassasasi, jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liqligining namoyon bo'lishi hisoblanadi. U axloqiy madaniyat, ideallar, ma'naviy qadriyatlarni tavsiflaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduvalitov E.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish. Toshkent – 2020. 22-bet.

2. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 150 b..

3. Сафонова, В.В. Социокультурный подход: основные социальнопедагогические и методические положения / В.В. Сафонова // Иностранные языки в школе. – 2014. – №11. – С. 2–13

4. Сариева К.Н. Методика преподавания казахской литературы в школах с русским языком обучения (теория и практика). – Алматы, Фонд Шаймардана Сариева, 2022. – 152 с.

5. Соловьева, Н. И. Роль страноведческих знаний в формировании социокультурной компетенции. 2015 г. 84 с.

6. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.

7. Сысоев П.В. Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка / П.В. Сысоев // Иностранные языки в школе. – 2001 – №4. – С. 12-18.